

GLOBALLASHUV DAVRIDA CHET TILLARINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI

Ergasheva Shahnoza Solijon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi
+998882440021, shahnozaergasheva939@gmail.com

Ilmiy rahbar: O'ktamov Mamadjon

SHDPI Ta'limda matematika va axborot
texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi
oktamovm03@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonida chet tillarini o'rganishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Dunyo miqyosida iqtisodiy, ilmiy va madaniy hamkorlikning kengayishi chet tillarini bilish zaruratini oshirayotgani ta'kidlanadi. Shuningdek, til o'rganish jarayonida uchraydigan muammolar va ularni hal etish bo'yicha samarali yondashuvlar taklif etiladi. Interaktiv ta'lim usullari, onlayn resurslar va xalqaro almashinuv dasturlaridan foydalanish til o'rganish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, chet tillari, ta'lim, kommunikativ yondashuv, xalqaro hamkorlik, onlayn ta'lim, til o'rganish, innovatsion metodlar.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlari dunyo mamlakatlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirib, madaniy, iqtisodiy va ilmiy aloqalarni kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda chet tillarini o'rganish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki davlatlararo hamkorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylangan. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar rivoji, internet tarmog'ining kengayishi va xalqaro ta'lim dasturlarining ortib borishi chet tillarini bilish zaruratini oshirmoqda. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida chet tillarini o'rganishning dolzarb masalalari, muammolari va ularni hal qilish yo'llari tahlil qilinadi. Globallashuv natijasida davlatlar o'rtasidagi chegaralar

nisbatan ochilib, ko'plab xalqaro tashkilotlar, korporatsiyalar va ilmiy markazlar faoliyatini kengaytirmoqda. Shu bois chet tillarini bilish:

- xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshiradi;
- ta'lim va ilm-fan sohasida yangi imkoniyatlar yaratadi;
- turli madaniyatlar va xalqlar bilan samarali muloqot qilishga yordam beradi;
- xalqaro miqyosdagi texnologik va ilmiy yutuqlardan boxabar bo'lishni ta'minlaydi.

Ayniqsa, ingliz, xitoy, ispan va arab tillari dunyo miqyosida eng ko'p qo'llaniladigan va talab yuqori bo'lgan tillar sirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng o'z oldiga ulkan vazifalarni belgilab oldi. Mustaqillik deganda o'z taqdirini o'zi belgilaydigan, tinchlik, ozodlik, farovonlik, bunyodkorlik kabi g'oyalarini o'zida mujassamlashtiradigan tarixiy voqeadir. 2016-yildan boshlab jamiyatimizdagi buyuk bunyodkorlik jarayonlari yangicha tus olganva bu esa insonlarning hayotida tub o'zgarish ro'y berayotganligida ko'rishimiz mumkin. Hozirda davlatimiz taraqqiyotida chet tilini bilish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Chet tillarni bilish jamiyat va davlat taraqqiyotiga katta hissa qo'shishini bugungi kunda xorijiy mamlakatlar tajribasida yaqqol ko'rish mumkin. Chet tilini bilish bugungi kun uchun har qachongidan muhimroq bo'lib qoldi. XXI asr axborot jamiyatida zamon bilan hamnafas bo'lish uchun dunyo tillarini mukammal bilish va erkin axborot almashinuvi zamonaviy insonning asosiy belgilaridan biriga aylanib bo'ldi. Bu ehtiyoj kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan emas. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ajdodlarimiz o'z ona tillari bilan bir qatorda boshqa tillarni ham mukammal bilishga intilganlar va tarixdan ma'lumki, ular buni uddalaganlar. Barcha sohalarda katta yutuqlarga erishgan bobolarimizdan Abu Rayhon Beruniy ham chet tillarni yaxshi bilgan. U arab, sug'diy, fors, yunon va qadimiy yahudiy tillarini mukammal egallagan. Bundan tashqari, hind xalqi hayotini o'rganish jaryonida qadimgi Sanskrit yozuvini o'rganadi va o'zining mashhur "Hindiston" asarini yozadi [1].

Hozirgi kunda chet tillarini o'rganishda turli xil muammolar ham uchraydi:

- Ta'lim tizimidagi muammolar – ko'plab davlatlarda chet tillarini o'qitish metodikalari eskirgan bo'lib, zamonaviy yondashuvlar yetishmaydi.
- Nutq amaliyotining yetishmovchiligi – nazariy bilimlar yaxshi o'rgatilsa ham, amaliy muloqot qilish imkoniyati kam bo'ladi.
- Mahalliy til va madaniyat bilan uyg'unlik muammosi – ba'zi jamiyatlarda chet tillarining ommalashishi milliy til va madaniyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Motivatsiya yetishmovchiligi – ko'plab yoshlar chet tilini o'rganishga yetarlicha qiziqish bildirmaydi yoki bu jarayonda qiyinchiliklarga duch keladi.

Hozirgi kunda ham zamonaviy inson qiyofasini yaratish uchun chet tilini bilish ko'nikmalarisiz tasavvur eta olmaymiz. Chet tili bizga boshqa mamlakatlarning madaniyati va an'analari bilan yaqindan tanishish imkonini beribgina qolmay, insonning tafakkur va tasavvurini kengaytiradi. Kasbiy bilimlarini oshiradi. "Integratsiyalashgan ijtimoiy jarayonlar sharoitida, shuningdek, barqaror chet tillarini bilishni rivojlantirish asosiy kasbiy kompetensiyalardan biri sifatida qaraladi" [2]. Hozirgi dunyo globallashuv jarayoni – gibril jahon madaniyatining vujudga kelishi, milliy an'analarning ta'sirlashuvi, xalqlar o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlashuviga guvoh bo'lmoqda. U kishilar hayotining eng xilma-xil jabhalari - dunyoqarashi, siyosat va iqtisod, ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish, fan va ta'lim, madaniyat va san'at, din va til, sport va hokazolarning birlashishi va birligida namoyon bo'ladi [3].

Bugungi kunda chet tillarini o'rganishni rivojlantirishning turli xil yo'llari mavjud:

Interaktiv va kommunikativ metodlarni joriy etish – amaliy muloqot, ro'zg'or darajasidagi suhbatlar, rolli o'yinlar va multimedia vositalaridan foydalanish.

Onlayn ta'lim va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish – internet-platformalar, ilovalar va virtual muloqot muhitlari yordamida ta'lim olish.

Erta yoshdan chet tillarini o'rganish tizimini takomillashtirish – maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab chet tillariga e'tibor qaratish.

Xalqaro almashinuv dasturlarini kengaytirish – xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirib, talabalar va mutaxassislar uchun til amaliyotini oshirish imkoniyatlarini yaratish.

Chet tillarini o'rganish insonda xotirani sezilarli darajada rivojlantiradi, qat'iyat, eshitish va e'tiborni o'rgatadi. Odamlar turli sabablarga ko'ra chet tilini o'rganadilar, lekin inson har doim shaxsiy motivatsiyasidan xabardor bo'lishi kerak. Ko'p odamlar uchun yangi tilni o'zlashtirishning asosiy maqsadi kasbiy zaruratdir. Darhaqiqat, O'zbekistonning yirik shaharlarida ish beruvchilar oddiy xodimlar uchun ham, rahbarlar uchun ham chet tilini bilishni talab qilmoqda. Odatda ingliz tili bu rolni o'ynaydi, ammo yangi xalqaro kompaniyalar ochilishi bilan nemis, fransuz koreys, xitoy, turk tillari talabga aylanib bormoqda. E'tiborga olish kerak bo'lgan asosiy narsa - qaysi bir til shaxsiy rivojlanish va mutaxassislikka to'g'ri kelishidir. Chet tilini bilmaslik insonni o'zga jamiyatdan, boshqa madaniyatlardan bahramand bo'lishga to'siq bo'lishi mumkin. Bu albatta shaxsiy rivojlanishiga, qobiliyatlarini namoyon qilishiga o'ziga o'zi cheklovlar paydo qilib oladi. Inson tafakkuri cheksiz, u ona tili qatorida boshqa tillarni o'zi xohlagan paytda o'rganishi mumkin. O'zga tillarni bilish imkoniyatlar eshigini yana bir bosqichga ko'paytiradi.

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish sharoitida chet tillarini o'rganish muhim va zaruriy jarayon hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ilmiy-texnologik taraqqiyotdan ortda qolmaslik uchun chet tillarini o'rganishning innovatsion usullarini keng joriy etish lozim. Shu bilan birga, milliy til va madaniyatni saqlash bilan uyg'unlikda chet tillarini o'rganish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chet tillarini o'rganish globallashtirish jarayonining ajralmas qismiga aylanib, xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning asosiy shartlaridan biri bo'lib qoldi. Biroq, ta'lim tizimidagi kamchiliklar, amaliy mashg'ulotlarning yetishmovchiligi va motivatsiya muammolari til o'rganishga to'siq bo'lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlarni joriy etish muhimdir. Chet tillarini o'rganish shaxsiy rivojlanish

bilan birga davlatlararo aloqalarni mustahkamlash, iqtisodiy va ilmiy hamkorlikni kengaytirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuv zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A. Jumanazarova, L. Tursunov "Zamonaviy jamiyatda chet tillarni bilishning dolzarb masalalari". ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ jurnali. Выпуск журнала № – 22. Часть–3. Июнь –2023. ISBN – 2181-3187. <http://www.newjournal.org/>. 194-198-B.
2. Барлыбаев Х. А. Глобализация: вопросы теории и практики // Век глобализации. Вып. № 2. 2008. [Электронный ресурс] <URL:http://www.socionauki.ru/journal/articles/129849/> (дата обращения: 24.12.2013).
3. Sh.M. Mirziyoyev raisligida 2023-yil 6-may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan <https://president.uz/uz/lists/view/4327>.